



**TIBBIYOTGA OID ATAMALARNI INGLIZ TILIDA O`QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN USLUBLAR: USTUNLIK VA KAMCHLIKLER**

**Xoshimova Azizaxon Saxobiddinovna**

*Farg`ona jamoat salomatligi instituti o`qituvchisi*

+998333630670

[azizasaxobiddinovna@gmail.com](mailto:azizasaxobiddinovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tibbiyot sohasida qo`llaniladigan inglizcha atamalarni o`qitish jarayonida ishlatiladigan asosiy metodlar ko`rib chiqiladi. ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili), vazifa asosida o`qitish (TBLT), klinik holatlarga asoslangan o`qitish (CBL), simulyatsiyalar va rolli o`yinlar, terminologik lug`atlar hamda korpuslardan foydalanish kabi uslublarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Ularning integratsiyalashgan qo`llanishi talabalarining so`z boyligini oshirish, muloqotga tayyorlash va yozma ishlarni to`g`ri bajarish ko`nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta`kidlanadi.

**Kalit so`zlar:** Tibbiy terminologiya, ESP, TBLT, CBL, simulyatsiya, rolli o`yinlar, terminologik lug`at, korpus lingvistika, o`qitish metodlari.

Tibbiyotning globallashuvi jarayonida ingliz tili zamonaviy shifokorlar uchun asosiy aloqa vositasiga aylandi. Xalqaro konferensiyalarda qatnashish, ilmiy maqola yozish yoki chet ellik bemorlar bilan muloqot qilishda terminologiyani to`g`ri ishlatish zarur. Terminologik xatolar noto`g`ri tashxis yoki davolashga olib kelishi mumkin [3:45-62]. Shu sababli tibbiy ingliz tilini samarali metodlar asosida o`qitish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Amaldagi ko`plab darslik va dasturlar terminlarni yodlashga qaratilgan, biroq ularni real klinik vaziyatlarda qo`llashni o`rgatishga yetarli e`tibor berilmaydi [4:91-120]. Natijada talabalar bemor bilan muloqot qilishda, shifokorlar o`rtasida axborot uzatishda qiynaladi. Yana bir muammo – baholash tizimi nazariy bilimni sinaydi, lekin nutqiy faoliyat va kommunikativ ko`nikmalar yetarli darajada baholanmaydi.

Tadqiqotning maqsadi tibbiy atamalarni o`qitishda ishlatiladigan asosiy metodlarni tahlil qilish, ularning ustunlik va kamchiliklarini aniqlash va integratsiyalashgan o`quv modeli bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat[6:76-95].

Tadqiqotimiz natijalari o`laroq quyidagilarni ta`kidlashimiz lozimki, tibbiy atamalarni o`qitishda ayrim uslublar sermaxsul xisoblanadi, bular:

1. ESP uslubi. Afzalligi shundaki, real soha terminlarini o`rgatadi, ehtiyoj tahliliga asoslanadi, biroq faqat o`qish va lug`at bilan cheklanib qolsa, og`zaki nutq ko`nikmasi rivojlanmaydi [5:12-34].





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR**



2. Vazifa asosida o‘qitish (TBLT). Bunda talabalar terminlarni vazifa bajarish jarayonida faol qo‘llaydi, muloqotga tayyorlanadi [4:91-120]. Shuningdek, darsni puxta loyihalash va o‘qituvchining malakasi talab qilinadi.

3. Case-Based Learning (CBL). Afzalligi klinik holatlarni tahlil qilish orqali tahliliy fikrlash va terminlardan kontekstda foydalanishni rivojlantiradi [1:481-486]. Uslubning kamchiligi shundaki, ko‘proq vaqt va murakkab tayyorgarlik talab etadi.

4. Simulyatsiya va rolli o‘yinlarda talabalar real sharoitga yaqin vaziyatlarda mashq qiladi, stressga chidamliligi va psixologik tayyorgarligi oshadi [7:699-706]. Bu metoddan foydalanish uchun esa texnik vositalar va resurslar zarur.

5. Lug‘atlar va korpus lingvistika. Bu usulda terminlarning aniq ma’nosini, chastotasini ko‘rsatadi, kontekstni o‘rgatadi [2:130-152]. Qo`shimcha tarzda, nazariy o‘rganishdan tashqari amaliy nutq mashqlari bilan mustahkamlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyotga oid ingлизча atamalarni o‘qitishda yagona metod bilan cheklanmaslik kerak. Eng yaxshi natija — ESP asosida materiallar tayyorlash, TBLT va CBL vazifalarini qo‘llash, simulyatsiya va rolli o‘yinlar orqali mashq qilish hamda yozma janrlarni o‘rgatish metodlarini uyg‘unlashtirish orqali erishiladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv talabalarni real klinik sharoitga tayyorlaydi va bemor xavfsizligini oshiradi .

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Barrows, H. S. A taxonomy of problem-based learning methods. – Medical Education, 20(6), 1986. pp.-481-486.
2. Biber, D.; Conrad, S.; Reppen, R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge University Press, 1998. pp.-130-152.
3. Dudley-Evans, T.; St John, M. J. Developments in English for Specific Purposes. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. pp.-45-62.
4. Ellis, R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. pp.-91-120.
5. Hutchinson, T.; Waters, A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. pp.12-34.
6. Hyland, K. English for Academic Purposes. – London: Routledge, 2006. pp.76-95.
7. Motola, I., et al. Simulation in healthcare education: A best evidence review. – Medical Teacher, 2013. pp.699-706.